

Abdunazarov Xusan Mengliyevich
Candidate of Geographical Sciences,
Associate Professor, Department of Geography
Termez State University
Termez, Uzbekistan

Umarova M.Kh.
senior lecturer
Department of Geography
Termez State University
Uzbekistan, Termez

**CHANGES IN NETWORKS AND TERRITORIAL COMPOSITION
OF REGIONAL INDUSTRY NETWORKS.**

Annotation: In this article, the formation and development of industrial sectors in the Surkhandarya region, the sector and regional structure of the industry, and the production of industrial products in the years of independence are discussed.

Key words: Specialization, cooperation, incorporation, combination, processing industry.

Abdunazarov Xusan Mengliyevich
Termiz davlat universiteti
Geografiya kafedrasi dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi
Termiz, O‘zbekiston
Umarova Mahbuba Hamroyevna
Termiz davlat universiteti
Geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Termiz, O‘zbekiston

VILOYAT SANOAT TARMOQLARINING TARMOQLAR VA HUDUDIIY TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida sanoat tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi, sanoatning tarmoq va hududiy tarkibi, mustaqillik yillarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ixtisoslashuv, kooperatsiya, mujassamlashuv, kombinatlashuv, qayta ishlash sanoati.*

Mustaqillik yillarida respublikamizda amalga oshirilgan bozor iqtisodiyoti islohotlari negizida iqtisodiyot tarmoqlar tarkibini o'zgartirish, mahalliy arzon xom-ashyo, yetarli mehnat resurslari, ichki va tashqi bozorda iste'mol tovarlarga ehtiyojning mavjudligini hisobga olgan holda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlar va hududiy tarkibini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada respublikamizda yoqilg'i-energetika, neft, kimyo va neft-kimyo, rangli metallurgiya, qurilish, yengil sanoat xususan to'qimachilik, oziq-ovqat tarmoqlari qayta modernizatsiya qilinib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshirildi.

Viloyatda 2013-2022 yillarda sanoat yalpi mahsuloti 5 marta o'sgan bo'lsa-da, Surxondaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishining respublikadagi ulushi yuqori emas. Viloyat sanoatining respublika yalpi sanoatidagi ulushi 2013-yilda 1,8 foizni, 2017-yilda 2,3 foizni, 2022 yilda 1,3 foizni tashkil etgan. 2022 yilda 2013-yilga nisbatan viloyat tog' kon sanoatida sanoat yalpi mahsuloti ishlab chiqarish 4,4 marta, qayta ishlash sanoatida esa 5,5 marta o'sgan.

Tadqiq etilayotgan yillarda viloyatda sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari oldingi yillarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa faqatgina 2017 yildagina bu ko'rsatkich ancha past bo'lgan.

Viloyat sanoat yalpi mahsulotida tog'-kon sanoatiga nisbatan qayta ishlash sanoatining ulushi yuqori ko'rsatkichga ega. Qayta ishlash sanoati yalpi mahsulotida ayniqsa to'qimachilik, oziq-ovqat, nometall mineral mahsulotlar, koks va neftni qayta ishlash sohalarining ulushi so'nggi yillarda sezilarli o'smoqda.

2022yilda viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat yalpi mahsulotining 2,9 foizi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmoqlariga, 88,5 foizi ishlab chiqaradigan sanoatga, 7 foizi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondensatsiyalash sohasiga, 1,6 foizi suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmoqlariga to'g'ri kelgan.

Viloyat sanoat tarmoqlari tarkibi tahlili shundan dalolat beradiki, mintaqa tog'-kon sanoatiga ko'mir, neft, tabiiy gaz, elektro-energetika, rangli metallurgiya, qurilish xom-ashyosini qazib olish tarmoqlari kiradi. Viloyat tog'-kon sanoati geografiyasini tog'li hududlardagi boy ko'mir, polimetall, qurilish xom-ashyosi, tog' oldi va tekislik hududlarida joylashgan neft va tabiiy gaz konlari belgilab beradi.

Mintaqa qayta ishlash sanoati asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Mazkur sanoat tarmoqlari viloyatning sug'orma dehqonchilik qilinadigan Surxon –SHerobod vodiysida joylashgan. Viloyat qayta ishlash sanoati korxonalarini asosan paxta, donli ekinlar, sabzavot, poliz, meva va uzum, pilla kabi mahsulotlarni qayta ishlab undan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Viloyat sanoat tarmoqlariga qarashli korxonalarda o'ndan ortiq turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Viloyat yoqilg'i sanoatining etakchi tarmoqlaridan biri ko'mir qazib olish sanoatidir. Mintaqada asosan toshko'mir SHarg'un (Sariosiyo) va To'da (Boysun) konlaridan qazib olinadi. Viloyat respublikada qazib olinadigan ko'mirning 2,5-3,0 foizini beradi. So'nggi yillarda viloyat ko'mir sanoatiga xitoylik xorijiy ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 105mln AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi, va natijada ko'mir qazib olish hajmini yaqin kelajakda qariyb 1mln tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan.

2013-2022 yillar davomida ko'mir qazib olish 123,5 ming tonnadan 282,3 ming tonnaga yetkazilgan. Bu esa 2022 yilda 2013-yilga nisbatan 158,8 ming tonna ko'p ko'mir qazib chiqarilgan. O'sish sur'ati esa 2,2 martaga o'sgan.

Viloyat yoqilg'i sanoatining yana bir muhim tarmog'i neft sanoati hisoblanadi. Neft sanoati asosan viloyat hududida joylashgan Kakaydi, Lalmikor,

Tolli, Qo'shtar va boshqa o'nlab konlardan qazib olinadigan mahalliy neft xom-ashyosiga tayanadi. Viloyatda qazib olinadigan neft hajmi uncha yuqori emas. Viloyat neft sanoatida har yili o'rtacha 80 ming tonna atrofida neft qazib olinmoqda. 2022-yilda 2013-yilga nisbatan neft qazib olish 99 foizga o'sgan. Ayniqsa 2017-yilda viloyatda neft qazib olish hajmida ancha pasayish kuzatilgan.

1-jadval

Surxondaryo viloyati tumanlarida sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish
(amaldagi narxlarda, mlrd.so`m)

T/r		2013	2018	2019	2020	2021	2022	2022 yilda 2013 yilga nisbatan o'sish,%
	Surxondaryo viloyati	<u>1321.4</u> 537,8	<u>3234.7</u> 1218,0	<u>4231.3</u> 1601,3	<u>5322.7</u> 2161,1	<u>6675.3</u> 2 640,6	<u>7298.7</u> 2632,0	<u>5,5m</u> 4,8m
	Oltinsoy	<u>21.6</u> 19,1	<u>59.2</u> 49,9	<u>63.4</u> 56,8	<u>125.0</u> 116,8	<u>186.6</u> 171,0	<u>175.1</u> 167,0	<u>8m</u> 8,7m
1	Angor	<u>61.2</u> 19,8	<u>96.9</u> 47,0	<u>91.5</u> 63,9	<u>90.9</u> 71,4	<u>196.2</u> 89,7	<u>152.9</u> 87,4	<u>2.4m</u> 4,4m
2	Bandixon	- -	- 0,0	- -	<u>7.1</u> 6,8	<u>60.4</u> 11,5	<u>129.0</u> 10,0	<u>18m</u> 1,4m
3	Boysun	<u>32.9</u> 27,9	<u>58.4</u> 45,0	<u>69.8</u> 59,8	<u>84.5</u> 67,2	<u>100.6</u> 77,3	<u>113.5</u> 82,5	<u>3.4m</u> 2,9m
4	Muzrabod	<u>59.6</u> 20,5	<u>71.7</u> 31,5	<u>78.5</u> 42,5	<u>182.7</u> 69,3	<u>261.5</u> 100,3	<u>268.6</u> 77,6	<u>4.5m</u> 3,7m
5	Denov	<u>166.8</u> 99,5	<u>431.0</u> 239,9	<u>467.0</u> 281,1	<u>839.0</u> 325,6	<u>431.8</u> 327,3	<u>408.5</u> 320,0	<u>2.4m</u> 3,2m
6	Jarqo`rg'on	<u>254.1</u> 23,2	<u>666.8</u> 69,8	<u>867.4</u> 160,3	<u>933.8</u> 154,1	<u>983.9</u> 290,3	<u>1033.8</u> 362,0	<u>4m</u> 15,6m
7	Qumqo`rg'on	<u>72.3</u> 23,1	<u>202.2</u> 50,6	<u>226.4</u> 65,7	<u>350.1</u> 106,2	<u>510.3</u> 116,0	<u>637.0</u> 128,2	<u>8.8m</u> 5,5m
8	Qiziriq	<u>64.8</u> 18,2	<u>115.5</u> 35,1	<u>74.5</u> 64,6	<u>155.5</u> 88,1	<u>234.1</u> 151,0	<u>210.9</u> 64,0	<u>3.2m</u> 3,5m
9	Sariosiyo	<u>75.2</u> 32,6	<u>248.6</u> 103,4	<u>530.2</u> 100,2	<u>266.2</u> 105,1	<u>723.5</u> 127,2	<u>779.2</u> 133,2	<u>10.3m</u> 4m
10	Termiz	<u>35.7</u> 29,0	<u>109.9</u> 70,2	<u>105.5</u> 89,6	<u>114.5</u> 110,4	<u>280.3</u> 125,8	<u>371.5</u> 165,2	<u>10.4m</u> 5,6m
11	Uzun	<u>49.0</u> 21,4	<u>120.0</u> 52,9	<u>92.4</u> 61,0	<u>95.0</u> 70,3	<u>287.0</u> 111,6	<u>319.9</u> 81,8	<u>6.5m</u> 3,8m
12	Sherobod	<u>93.1</u> 38,9	<u>154.2</u> 100,6	<u>342.9</u> 104,8	<u>419.3</u> 116,9	<u>567.3</u> 128,1	<u>586.4</u> 140,1	<u>6.2m</u> 3,6m
13	Sho`rchi	<u>146.1</u> 95,5	<u>352.9</u> 166,5	<u>361.3</u> 245,4	<u>464.7</u> 290,5	<u>618.8</u> 342,5	<u>817.2</u> 402,4	<u>5.5m</u> 4,2m
14	Termiz sh.	<u>189.0</u> 69,2	<u>547.4</u> 155,6	<u>860.5</u> 205,6	<u>1194.4</u> 462,3	<u>1233.0</u> 471,1	<u>1295.4</u> 410,5	<u>6.8m</u> 5,9m

Izoh: Kasr sur'atida sanoat mahsulotlari, kasr maxrajida iste'mol mollari ishlab chiqarish. Jadval mualliflar tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining "Surxanstat.uz" rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

So'nggi yillarda mintaqada paxta xom-ashyosi hajmining kamayishi hisobiga, paxta tozalash sanoatida paxta tolasi ishlab chiqarish, yog'-moy sanoatida o'simlik moyi ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatilgan. Bundan tashqari viloyat qayta ishlash sanoatida dizel yoqilg'isi, mazut, bitum, portland sement, paxta tiviti (lint), aroq, sabzavot konservalari, sariyog' ishlab chiqarishda ham pasayish jarayonini kuzatishimiz mumkin.

Surxondaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibi yuqori darajada takomillashmagan. Yuqorida keltirilgan 1–jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, viloyatning ma'muriy tumanlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi bir tekis rivojlanmagan. Viloyatda 2022 yilda 2013yilga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 5,5 martaga, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 4,8 martaga o'sgan. Viloyatning ma'muriy markazi bo'lgan Termiz shahri va Jarqo'rg'on, SHo'rchi, Denov tumanlarini "o'sish qutb"lari sifatida ko'rishimiz mumkin. Mazkur tumanlarga viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 48,7 foizi hamda iste'mol mollarining 27,4 foizi to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mintaqalar sanoati tarmoqlarining hududiy joylashishi va rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa aholi uchun iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. , Esanov N. A. Surxondaryo viloyati geografiyasi.(2-qism) O'quv qo'llanma - "IMPRESS MEDIA" MCHJ. 2024.
2. Абдуназаров Х.М. , Умарова М.Х. Развитие внешнеэкономических связей Республики Узбекистан в годы независимости."Экономика и социум" №12(115)-2 2023.
3. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Сурхондарё вилоятида полиз сабзавот экинларини етиштириш масалалари. ."Экономика и социум" №11(126) 2024.
4. Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Termiz-2018.
5. Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi.-Darslik. Surxonashr. 2024.

6.O'zbekiston hududlarining yillik statistika to'plami.O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.T.:,2019,11-14b.